



Harflarni o'z o'rniga qo'yib, so'zlarni o'qing.
Bu so'zlarni bir-biriga bog'lab, 3 ta fikr ayting.

RADM**STO'D****NODO**

Mos so'zlarni nuqtalar o'rniga qo'yib, maqolni o'qing. Mazmunini izohlang.

... – kurashda, ... – tashvishda,
... g'azabda sinalar.



Mard o'g'lonlar bo'lamiz

Kavsar Turdiyeva

– Tog'ni baland demanglar,
Istasangiz chiqasiz.
Raqibni kuchli demang,
G'ayrat qiling, yengasiz.

Mard bo'linglar, botir bo'ling,
Shu otaning tilagi.
Ezgu ishga qodir bo'ling,
Yigitga shu keragi.



– Ha, dadajon, qo'rqmaymiz biz,
Mard va polvon bo'lamiz.
Ishonchingiz oqlash uchun
Kuch-qudratga to'lamiz.

Ha, ha, ezgu niyat bilan
Zo'r insonlar bo'lamiz.
El-yurtimiz orzu qilgan
Mard o'g'lonlar bo'lamiz.



Sher bolasi ovni yengar,
El bolasi yovlarni.
Yo'llarida uchrab qolgan
Barcha to'siq-g'ovlarni.



Chiniqinglar, mashq qilinglar,
Yutuq sehri mehnatda.
Xalqni e'zoz qilgan inson,
Bo'lar doim izzatda.



1. She'r kimning tilidan aytilgan?
2. Ota farzandiga qanday tilak bildirdi?
3. El-yurtimiz orzu qilgan mard o'g'lonlar qanday bo'lishi kerak, deb o'ylaysiz?
4. Xalqini e'zozlagan inson qanday xislatlari orqali namoyon bo'ladi?
5. Sizningcha, she'rda qanday g'oya ifodalanyapti?



She'rni ifodali o'qing.

Qofiyadosh so'zlarni aniqlang va ularga yana 2 tadan qofiyadosh so'z toping.




Bugungi kunda yoshlarga o'z iqtidorlarini namoyon etishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ular sport, san'at, ilm-fanning turli sohalarida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritmoqdalar.

Italiyada bo'lib o'tgan shaxmat bo'yicha yoshlar o'rtasidagi jahon chempionatida vatandoshimiz Afruza Hamdamova O'zbekiston tarixida qizlar o'rtasidagi ilk jahon chempioni bo'ldi. Iqtidor har bir insonda mavjud. Oldiga qo'yilgan aniq maqsad sari astoydil intilgan kishi, albatta, unga erishadi.



Quyidagi rasmlarni so'zlar bilan ifodalang.

Matn tuzing va unga sarlavha toping.



She'rni yod oling.